Роль акционерных обществ в национальной экономике: анализ вклада крупных акционерных обществ в валовой внутренний продукт Узбекистана, их роль в создании рабочих мест и осуществлении инновационной деятельности	884
Халекеева Зоя Пирниязовна, Эшов Алишер Ахтамович	
Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini shakllantirishning mohiyati va nazariy asoslari	888
Ashurov Azizbek Asqaraliyevich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarining ahamiyati	892
Xakimova Gulzora Jamshidovna	
Xorijiy mamlakatlar miqyosida elektron xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari va ularning ko'rsatkichlari.....	896
Xudoyorova Mehrangiz	
Iqtisodiy o'sish samaradorligini ta'minlashda tabiiy va moliyaviy resurslardan unumli foydalanish masalalari.....	901
Xomidova Kamola G'olib qizi	
"Silk road stations" turizm rastalarini tashkil etish loyihasini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlari	907
Suxrob Ramazonovich Bobokalonov	
Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rolini oshirish mexanizmlari.....	916
Kamilova Iroda Xusnitdinovna	
Transport xizmatlari bozorini shakllantirish va rivojlantirishning respublikamizdagi ahamiyati.....	921
Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi	
Banklarda kredit operatsiyalari hisobi va tahlilini takomillashtirish yo'llari.....	927
G'olib Tashmanov, Hilolaoy Egamberdiyeva	
Innovatsion iqtisodiyotda telemeditsina xizmatlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.....	933
S.M. Raximova	
Marketing tadqiqotlarining iqtisodiy mazmuni, turlari va bozorni segmentlarga ajratish masalalari.....	937
Valiyeva Aziza	
G'allachilik klasterlarini shakllantirishning zarurati, bosqichlari va faoliyatining xususiyatlari.....	942
Ilmuratov Shavkat Maxsumovich	



Boshqaruv hisobi tizimida budjetlashtirishning nazariy-metodologik jihatlarlari	949
Urmanova Umida Xakimdjanoyna	
Пути обеспечения инвестиционной привлекательности коммерческих банков узбекистана на основе зарубежного опыта	954
Тилеумуратов Азамат Азатович	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	959
Ozatbekov Yusupxon Farxod o'g'li	
Mamlakatimizning eksport imkoniyatlari va muammolari.....	964
Ansabxon ZAKIROV	
Цифровизация и прогнозные параметры экспортного потенциала субъектов малого бизнеса	967
Мирзахаликов Бобир Бахтиёрович	
Зелёный энергопереход как фактор устойчивого развития энергетики Узбекистана.....	971
Юсупов Ёкуб Рустамович	
Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков	978
Кадилова Хадича Тураевна	
Yashil iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillari.....	983
Israilova Shoira Turg'unovna	
Davlat moliyaviy nazorati organlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	987
Zuparov Abzaljon Batirjonovich	
Методика расчета устойчивого развития предприятий тэк на основе сводных интегральных индексов.....	991
Г.Ж. Аллаева	
Chet mamlakatlar pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari.....	995
Tursunov Zohidxo'ja Orifovich	
Davlat fiskal va monetar siyosatining vujudga kelishi.....	1002
Xudaybergenova Nigora Turgunboyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda banklarning rolini oshirish	1005
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Xarajatlar hisobini mhxs asosida tan olishning o'ziga xos xususiyatlari	1010
Xaydarova Surayyo Nasirdinovna	
Zamonaviy turizm yo'nalishlari yangiliklarini sohaga tadbqiq etish va turizm bozorini rivojlantirishda aqlli (smart) texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1016
Sangirov Utkir Xudoyberdiyevich	
Sanoat korxonalarining raqobatdoshligini ta'minlash salohiyati	1021
To'raev Sardorbek To'raevich	
Kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish omillari	1025
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Agrar soha taraqqiyotida xorijiy investitsiyalarning roli.....	1031
Ko'chqarov Fayzullo Abdujabborovich, Mamatov Baxadir Safaraliyevich	
Оценка влияния введения цифровой валюты на денежную сферу	1041
Якубова Ш.Ш.	
Importance of staff service quality at uzbek national restaurants in uzbekistan.....	1046
Shodiyona Sanginova	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	1051
Azizova Zilola Lochin qizi	
Biznes sohasi uchun oliy ma'lumotli boshqaruv kadrlarini sifatli tayyorlash masalalari.....	1057
Shabnam Djumaniyazova	



Hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda xorijiy tajriba.....	1064
Bozorov Ilyos Isomiddinovich	
To'qimachilik mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida yevropa ittifoqiga eksport qilish imkoniyatlari.....	1071
Raximova Moxigul Isroiljanovna	
Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing	1074
Bakhtiyor Djurakulovich Safarov, Abdusaidova Gulhayo Bakhridin qizi	
Sug'urta kompaniyalarning investitsion faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni	1079
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Investitsiya portfelini shakllantirishda moliyaviy risklarni boshqarishning chiziqsiz modellari	1083
Shirin Zafar qizi Tursunxodjayeva	
Raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida soliq qarzdorligini undirish mexanizmining soliq ma'muriyatchiligidagi o'ziga xos xususiyatlari.....	1097
O'taganov Anvar Nurxonovich	
Analysis of factors affecting certification in the production of textile industry products.....	1103
Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish.....	1106
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	1111
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Professionallarning xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solishning asosiy tamoyillari	1117
Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
Mintaqalarda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning moliyaviy asoslari: xorij tajribasi	1121
Xoltoyev Mirusmon	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	1126
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Soliqqa tortish va soliq ma'murchiligi sohasida ma'lumotlarning elektron hujjatdan foydalanish orqali soliq bazasini kengaytirish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	1136
Axmedjanov Farrux Karimovich	
Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiyotni raqobatbardoshligiga ta'siri tahlili.....	1146
Turdaliyev Eldor Shuxratjon o'g'li	
Soliq qarzdorlik summalarini hamda qarzdorlikni vujudga keltuvshi sabablar tahlili.....	1152
Abdukurimov Xurmat Matyakubovich	
Kichik korxonalarni rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1160
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li, Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Ways to increase sales efficiency	1164
Jabborov Xurshid To'ramurod o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning xorij tajribalari.....	1171
Karaev Payzillaxon Yusufxonovich	
Rivojlangan davlatlar byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning o'rni	1175
Abduraimova Nigora Radjabovna	



RIVOJLANGAN DAVLATLAR BYUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA BEVOSITA SOLIQLARNING O'RNI

ORCID: 0000-0003-4114-9445

Abduraimova Nigora Radjabovna

Toshkent Menejment va iqtisodiyot instituti, PhD

Annotatsiya: Rivojlangan davlatlar byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning o'ri keltirilgan. Davlat byudjetining rivojlanish jarayoni va unda aholi daromadlaridan olinadigan soliqlarning ahamiyati ochib berilgan. Yevro hududiga kiruvchi davlatlardagi (EH-19) soliq tushumlarining qiyosiy tahlili qilindi. Dunyoning ayrim mamlakatlarida daromad solig'ining stavkalari ko'rib chiqildi hamda tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti daromadlari, YaIM, progressiv soliq stavkalari, foyda solig'i.

Abstract: The role of direct taxes in the formation of budget revenues of developed countries is given. The development process of the state budget and the importance of taxes collected from the population's income are revealed in it. A comparative analysis of tax revenues in the countries of the Eurozone (EH-19) was made. Income tax rates in some countries of the world were reviewed and relevant suggestions and recommendations were made.

Key words: state budget revenues, state budget revenues, GDP, progressive tax rates, profit tax.

Аннотация: Показана роль прямых налогов в формировании доходов бюджетов развитых стран. В нем раскрывается процесс формирования государственного бюджета и значение налогов, взимаемых с доходов населения. Проведен сравнительный анализ налоговых поступлений в странах еврозоны (ЕН-19). Были рассмотрены ставки подоходного налога в некоторых странах мира и даны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: доходы государственного бюджета, доходы государственного бюджета, ВВП, прогрессивные налоговые ставки, налог на прибыль.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishiga mos ravishda samarali soliq tizimini shakllantirish, soliqlarni yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib borish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida soliqqa tortish shakllari va uslubiyatidagi katta farqning mavjudligi, davlatlar byudjeti daromadlari tarkibining o'zgarishidagi xususiyatlar farqli jihatlarning saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Shunday bo'lsada, soliqlar davlat byudjetining asosiy va ishonchli daromad manbasi bo'lib qolmoqda.

Jahon amaliyotida ishlab chiqarish va iste'mol rivojlanishining qay biriga ustuvorlik berish muammosini eng madaniy tarzda hal qilishning asosiy yo'li Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita va bilvosita soliqlar guruhidan oqilona foydalanishdir. Agar taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida ishlab chiqarishni rivojlantirishga ustuvorlik beriladigan bo'lsa, u holda soliqlarning asosiy fiskal funksiyasini bajarish bilvosita soliqlar zimmasiga yuklanadi. Bu holda ishlab chiqarishni rivojlantirishning asosiy dastagi sifatida bevosita soliqlar maydonga chiqadi. Biroq jahonda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmidagi muammolar va farqlarning mavjudligi, ularni byudjet daromadlari barqarorligiga ta'siriga doir masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Chet davlatlarda bevosita soliqlarning ahamiyatini o'rgangan iqtisodchi-olim R.M. Grinyukning fikriga ko'ra, "To'g'ri soliqlar Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishi, inflyatsiyani jilovlashi va narxning oshishi, davlatning innovatsion va investitsion rivojlanishini stimullashtirishi kerak. Biroq bugungi kunda to'g'ri (bevosita) soliqlar faqat fiskal funksiyani bajaradi va yuridik hamda jismoniy shaxslar mablag'larini Davlat byudjetiga jalb qilib, stimullashtirish va investitsiya funksiyalarini amalga oshirishni ta'minlamaydi".

Ye.V.Pavlovaning ta'kidlashicha, "to'g'ri soliqlar har qanday davlat iqtisodiy tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan aksariyat mamlakatlarda to'g'ri soliqlar Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi".



V.V. Vo roshilo o'z izlanishlarida "jahon miqyosida soliqlarning ta'sirini ilmiy o'rganishning uchta modeli: anglosakson, yevrokontinental va lotin amerikasi modellari mavjudligini ta'kidlaydi. Anglosakson modeli to'g'ri (bevosita) soliqlarning ustuvorligiga, ayniqsa jismoniy shaxslarni soliqqa tortishga qaratilgan. Yevrokontinental model ijtimoiy sug'urta badallarining yuqori ulushi bilan ajralib turadi. Soliqqa tortishning lotin amerikasi modeli yuqori inflyatsiya sharoitida egri (bilvosita) soliqlarning ustuvorligiga qaratilgan. Ba'zi mamlakatlar soliq tizimida ushbu modellar aniq namoyon bo'lsa, ammo ba'zi mamlakatlar zamonaviy soliq tizimida to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlar tarkibini muvozanatlashtiradigan aralash modelini tanlaydilar".

Professorlar T. Malikov hamda O.Olimjonovlar soliqqa tortishning obyekt hamda soliq to'lovchi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq ravishda soliqlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo'linishini e'tirof etgan. To'g'ri (bevosita) soliqlar subyektga tegishli bo'lgan bevosita daromadlar va mol-mulkdan olinishini, egri (bilvosita) soliqlar tovarlar va xizmatlarga nisbatan o'rnatilib, tovar to'lanadigan baho yoki xizmatning tarifi tarkibida bo'lishini qayd etgan.

Professor A. Jo'raev o'z tadqiqotlarida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llarini tadqiq etib, soliqlarni mohiyati va shakliga qarab egri soliqlar va to'g'ri soliqlarga ajratib o'rgangan.

Iqtisodchi D. Daminov o'z tadqiqotlarida mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan bo'lsa, A. Islomkulov byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumlari barqarorligini ta'minlash masalalarini tadqiq etgan. B. Qodirov esa bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasidagi nisbat munosabatlari va soliq tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada, yuridik shaxslar moliyaviy natijalaridan kelib chiqib birgina foyda solig'ini to'lashlari belgilandi, ularning foydasidan undiriladigan boshqa soliq turlari bekor qilindi. Foyda solig'ining tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'siri kamaytirilib, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirishga, barcha tadbirkorlik subyektlari uchun teng soliq majburiyatlarini shakllantirishga va soliqqa tortishdagi nomutanosibliklarni qisqartirishga erishildi. O'z navbatida, soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar foyda solig'ini to'lovchilar sonining keskin oshishiga olib keldi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Davlat byudjetining rivojlanish jarayoni va unda aholi daromadlaridan olinadigan soliqlarning ahamiyatini oshib borishi so'nggi ikki asr monetar siyosatining dastagiga aylandi. Soliqlarni uzoq muddatli rivojlanishi ko'rsatmoqdaki, zamonaviy soliqqa tortish keng qirraliligi bilan ajralib turadi. Jamiyatda iqtisodiy rivojlanishga mutanosib ravishda soliqqa tortish normalari ham mukammalashib kelmoqda. Ma'lumki, bugungi kunda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar iqtisodiyoti dunyoda yetakchi hisoblanib, ularning tajribalarini o'rganish rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

"Yevropa Ittifoqida soliqqa tortish tendensiyalari" nomli hisobotda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlar hamda Islandiya va Norvegiya davlatlarining soliqlari, jumladan, bevosita soliqlari atroficha tahlil qilingan. Hisobotda ushbu davlatlarda amalda bo'lgan bevosita soliqlarni yalpi ichki mahsulot, soliq tizimi va davlat byudjeti daromadlaridagi ahamiyatiga atroficha e'tibor qaratilgan, bevosita soliqqa tortish tendensiyalarida ular ahamiyatining ortib borishi kuzatilgan.

Yevro hududiga kiruvchi davlatlarda (EH-19) soliq tushumlarining 32,9 foizi bilvosita soliqlar, 34,2 foizi bevosita soliqlar, 34,4 foizi ijtimoiy to'lovlar hisobiga shakllantirilgan. Yevropa Ittifoqi davlatlarining soliq tizimining tahlili ko'rsatmoqdaki, soliq tizimini tashkil etishda bevosita va bilvosita soliqlar nisbati ta'minlangan. So'nggi o'n yillik ma'lumotlar tahlilida soliqlarni YalMdagi, jami soliq tushumlaridagi ulushini keskin ravishda o'zgarishi kuzatilmagan. Shunga qaramasdan soliqlarni YalMdagi ulushi, ayniqsa bevosita soliqlarni ulushi nisbatan o'sish tendensiyasiga ega.

Tahlillar rivojlangan davlatlarda bevosita soliqlarni rivojlanish tendensiyalarini, ularning xususiyatlarini aniqlash imkoniyatini berdi. Bevosita soliqlar turli davlatlarda bir-biridan sezilarli darajada farq qilsa-da, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda o'zaro bog'liqlikni namoyon qilmoqda. Aniqlangan tendensiyalar davlat tomonidan soliq islohotlarini olib borishda yoki bevosita soliqlarni undiriluvchanligini oshirishga qaratilgan soliq siyosatini amalga oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarning har birida soliq qonunchiligi va soliq siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsada, bevosita soliqlar ularning ko'pchiligida davlat byudjeti moliyaviy resurslarini shakllantirishning muhim manbai bo'lib qolmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi soliq tizimining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, bevosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. So'nggi yillarda bevosita soliqlarning asosiy turi sifatida shaxsiy daromad solig'i (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i) namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sababi dunyo iqtisodiyotida yollanib ishlovchilarga to'lanadigan ish haqi va shaxsiy faoliyatdan olingan daromadlarning yildan yilga oshib borayotganligi bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, shaxsiy daromadga



solliq solish va solliq stavkasi asosiy omillardan sanaladi. Bugungi kunga kelib, dunyo davlatlarida daromad solig'i stavkalarining ikki xil turi qo'llanilmoqda:

proporsional solliq stavkalari;

progressiv solliq stavkalari.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, quyidagi 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar ma'lum bir ahamiyatga egadir.

1-jadvalda dunyoning ayrim mamlakatlarida amal qilayotgan daromad solig'i stavkalari keltirilgan bo'lib, daromad solig'ining proporsional stavkasi belgilangan davlatlarda solliq stavkasi 10 foizdan (Bolgariya va Qozog'iston davlatlarida) 21 foizga (Estoniya) qadar o'sib borgan. Shu o'rinda qayd etish joizki, mamlakatimizda ham 2023-yildan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining 12 foizlik proporsional stavkasi joriy qilindi. O'zbekiston proporsional (mutanosib) solliq stavkasidan foydalanadigan mamlakatlar orasida daromad solig'i stavkasining eng past ko'rsatkichlaridan biriga ega.

1-jadval. Dunyoning ayrim mamlakatlarida daromad solig'i stavkalari¹.

Proporsional solliq stavkalari belgilangan mamlakatlar		Progressiv solliq stavkalari belgilangan mamlakatlar	
Mamlakat	Stavka, %	Mamlakat	Stavka, %
Estoniya	21,0	Daniya	8,0-55,6
Gruziya	20,0	Shvetsiya	30,0-55,0
Ukraina	18,0	Fransiya	0,0-49,0
Vengriya	16,0	Buyuk Britaniya	20,0-45,0
Ruminiya	16,0	Germaniya	14,0-45,0
Belarus Respublikasi	16,0	Italiya	23,0-43,0
Chexiya	15,0	Yaponiya	10,0-37,0
Litva	15,0	AQSh	10,0-37,0
Rossiya	13,0	Finlyandiya	6,0-31,75
Bolgariya	10,0	Latviya	20,0-31,4
Qozog'iston	10,0	Shvetsariya	1,8-26,0

Dunyo mamlakatlarining shaxsiy daromadlarni solliqqa tortish tajribasida daromad solig'ining progressiv stavkalari belgilangan davlatlar ko'pchilikni tashkil etadi. Odatda, daromad solig'ining progressiv stavkalari iqtisodiyoti rivojlangan, aholining turmush darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda keng qo'llaniladi. Aholining daromadlari yuqori bo'lgan sharoitda progressiv solliq stavkalarining qo'llanilishi solliqqa tortishning ijtimoiy adolatni ta'minlashga doir bo'lgan funksiyasini bajarishga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlarda bevosita solliqlarning yana bir asosiy turi korporativ solliq hisoblanadi. Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, dunyoning eng yirik iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda korporativ solliq stavkasining pasayishi kuzatilmoqda. AQShda 2022-yilda amalga oshirilgan solliq islohoti natijasida korporativ foyda solig'i stavkasi o'rtacha stavkaga yaqinlashtirildi.

Shunday qilib, ishimiz doirasida biz rivojlangan davlatlar byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita solliqlarning o'rni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tahlil qilish asosida ma'lum bir xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik. Ulardan mamlakatimiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita solliqlar rolini oshirishda ijodiy va ijobiy foydalanish o'z ma'nosiga ega deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy natijalari, ular egaligidagi resurslar miqdoriga monand holda solliq majburiyatlarini bajarishi talab etiladi. Solliq tizimini soha yoki tarmoqqa ixtisoslashtirish erkin raqobat muhitini buzilishiga, solliqqa tortish tamoyillarining buzilishiga olib keladi. Tadqiqotlar natijasi bozorlar va savdo komplekslari uchun alohida solliq solish rejimi solliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini buzilishiga olib kelganligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun bozorlar va savdo komplekslari uchun alohida solliq solish rejimini bekor qilish va umumbelgilangan qoidalar asosida solliqqa tortish lozim.

¹ Международное налогообложение (Электрон ресурс). <https://gsl.org/ru/taxes>



Quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi: xorij tajribasi va mamlakatimiz amaliyotidan kelib chiqib foyda solig'i stavkasini optimallashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini mustahkamlash; yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirish orqali davlat byudjeti daromadlarida bevosita soliqlar ulushini oshirish tavsiya etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ворошило В.В. Анализ влияния прямого налогообложения на формирование бюджетов в зарубежных странах. /Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2017 - №4. -<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=30737409>.
2. Vladimir V. Gromov & Nikolaj S. Milogolov, 2019. "Simplified Taxation System and Unified Tax on Imputed Income: Objectives, Problems, Long-term Vision", Financial Journal, Financial Research Institute, Moscow 127006, Russia, issue 2, pages 9-21, April. <https://ideas.repec.org/a/fru/finjrn/190201p9-21.html>.
3. Гашенко И.В. Развитие прямого налогообложения в налоговой системе России: теория и практика. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Ростов-на-Дону, 2010. – 48 с.
4. Гринюк Р.М. Функції та принципи прямого оподаткування підприємницьких структур: теоретичний аспект.
5. Гринюк Р.М. Функції та принципи прямого оподаткування підприємницьких структур: теоретичний аспект.
6. Павлова Е.В. Налоги и налогообложение: электронное учебное пособие. Изд-во ТГУ, 2016.
7. Ворошило В.В. Анализ влияния прямого налогообложения на формирование бюджетов в зарубежных странах. /Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции - 2017 - №4. -<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=30737409>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

